



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I**

10-son

4-fevral 2025-yil

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida korrupsiyaga
qarshi kurashish va komplaens nazorati faoliyatini yanada
takomillashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 6013-PF-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-sonli qarorlari talablari ijrosini samarali tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy apparatning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo‘limining quyidagi yangi tahrirdagi yo‘riqnomalari tasdiqlansin:

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida yashirin faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish siyosati 2-ilovaga muvofiq;

Qonun buzilishlar to‘g‘risida xabar berish tartibi 3-ilovaga muvofiq;

Xizmat jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish qoidasi 4-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining boshqa vazirlik va idoralar bilan sohaga oid vazifalarni bajarish jarayonida o'zaro hamkorlik qilish tartibi 5-ilovaga muvofiq;

Mablag'lardan samarali foydalanish va davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi 6-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 8-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 9-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari hamda boshqa qonun buzilishlar ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma 10-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma 11-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 12-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 13-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va tizim tashkilot rahbarlari o'zlari rahbarlik qilayotgan tashkilotlarda mazkur buyruqning mazmun va mohiyati chuqur tushuntirilishi hamda unga qat'iy amal qilinishi ta'minlansin.

3. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy apparati Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompleans nazorati bo'limi hamda tizim tashkilotlari Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompleans nazorati tuzilmalari, xodimni ishga qabul qilishdan oldin va rotatsiya/lavozimga tayinlanishida nomzodlarni Texnik jihatdan tartibga solish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan imzo qo'ygan holda tanishtirilishi hamda manfaatlar

to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi nomzodni tekshirilganligi to'g'risida hisobot to'ldirilishi belgilansin.

4. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy apparati Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi hamda tizim tashkilotlari xodimlar bilan ishlash bo'yicha tuzilmalari Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompleans nazorati tuzilmalari tomonidan nomzodni tekshirilganligi to'g'risida hisobot bo'yicha ijobiy xulosa berilgan taqdirda xodim bilan mehnat shartnomalari tuzilishi tavsiya etilsin.

5. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2020-yil 30-oktyabrdagi 103-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Ijro nazorati, murojaatlar bilan ishlash va devonxona bo'limi (Z.Gafurov) mazkur buyruq agentlik markaziy apparati va tizim tashkilotlarga yetkazilsin.

7. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



A. Jumanazarov